

OMMAVIY OFERTA
“Mini LED Sticker Contest”
PROMO-AKSIYASIDA ISHTIROK ETISH QOIDALARI

Sana: 22.06.2026yil

Mazkur “Mini LED Sticker Contest” rag‘batlantiruvchi aksiyasida (“Aksiya”) ishtirok etish qoidalari 2026 yil 23 iyun soat 19:00 dan 2026 yil 3 iyul soat 00:00 gacha (Toshkent vaqti bilan, shu jumladan) amal qiladi hamda XK MChJ «SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN» (“Tashkilotchi”) va Aksiya ishtirokchisi o‘rtasidagi kelishuv hisoblanadi.

Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy bo‘lib, Ishtirokchining ushbu Qoidalar bilan tanishganligini va ularga to‘liq hamda so‘zsiz roziligini anglatadi

https://www.samsung.com/uz_ru/offer/sticker-quest-tv

https://www.samsung.com/uz_uz/offer/sticker-quest-tv («Aksiya Sayti»).

1. Umumiy qoidalar

1.1. Tashkilotchi:

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Oloy Bozori berk ko‘chasi, 64-uy, “ORIENT BUSINESS CENTER”, 11-qavat, XK MChJ «Samsung Electronics Uzbekistan».

1.2. Aksiya o‘tkazilish muddati:

2026 yil 23 iyun soat 19:00 dan 2026 yil 3 iyul soat 00:00 gacha (shu jumladan), Toshkent vaqti bilan.

1.3. Aksiya yakunlarini chiqarish sanasi:

2026 yil 6 iyul, soat 18:30 (Toshkent vaqti bilan).

1.4. Aksiya o‘tkaziladigan hudud:

Samsung Uzbekistan rasmiy Telegram kanali hamda @samsunguzbekistan rasmiy Instagram sahifasi.

1.5. Sovg‘ani topshirish manzili:

O‘zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Oloy Bozori berk ko‘chasi, 64-uy, “ORIENT” biznes markazi, 5-qavat.

1.6. Aksiya sayti Aksiya bo‘yicha asosiy axborot manbai hisoblanadi. Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi ma‘lumotlari qisqartirilgan shaklda beriladi, to‘liq ma‘lumot ushbu Qoidalarda keltirilgan.

1.7. Tasodifiy sonlar generatori – G‘olibni tasodifiy tanlash imkonini beruvchi va yakuniy natijaga aralashuv yoki tarafkashlikni istisno qiluvchi vosita.

1.8. G‘olib – ushbu Qoidalarning barcha talablarini bajargan va tasodifiy sonlar generatori yordamida aniqlangan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

2. Aksiya ishtirokchisi

2.1. Aksiyada 18 yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi, barcha shartlarni mustaqil ravishda bajargan muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

2.2. Tashkilotchi xodimlari, ular bilan bog'liq shaxslar, ularning oila a'zolari hamda Aksiyani tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etayotgan boshqa kompaniyalar xodimlari Aksiyada qatnasha olmaydi.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi 2026 yil 23 iyun soat 19:00 dan 2026 yil 3 iyul soat 00:00 gacha bo'lgan davrda quyidagi barcha harakatlarni bajarishi shart:

3.1. Ishtirokchi Samsung Uzbekistan'ning quyidagi rasmiy sahifalariga obuna bo'lishi kerak:

Telegram: <https://t.me/SamsungUzbekistan>

Instagram: <https://goo.su/9gop>

YouTube: <https://goo.su/Rb9>

Facebook: <https://goo.su/v0q>

3.2. Ishtirokchi Telegram ilovasida Samsung'ning rasmiy brendlangan stikerlar to'plamini qo'shishi va Samsung Uzbekistan rasmiy Telegram kanalidagi tanlov jumboqlarini kuzatib borishi kerak.

3.3. Tanlov jumboqlari Samsung Uzbekistan rasmiy Telegram kanalida (<https://t.me/SamsungUzbekistan>) 2026 yil 23 iyun, 26 iyun, 29 iyun va 2 iyul kunlari e'lon qilinadi.

Javoblar quyidagi muddatlarda qabul qilinadi:

23 iyun kuni e'lon qilingan jumboq uchun — 23 iyun soat 19:00 dan 24 iyun soat 00:00 gacha;

26 iyun kuni e'lon qilingan jumboq uchun — 26 iyun soat 19:00 dan 27 iyun soat 00:00 gacha;

29 iyun kuni e'lon qilingan jumboq uchun — 29 iyun soat 19:00 dan 30 iyun soat 00:00 gacha;

2 iyul kuni e'lon qilingan jumboq uchun — 2 iyul soat 19:00 dan 3 iyul soat 00:00 gacha.

3.4. E'lon qilingan jumboqqa to'g'ri javob bergan va Samsung'ning rasmiy stikerlar to'plamidan mos stikerni yuborgan Ishtirokchilar sovrin uchun da'vogarlar ro'yxatiga kiritiladi.

3.5. Aksiyada ishtirok etish faqat ushbu Qoidalarning barcha talablariga to'liq va so'zsiz rioya qilingan taqdirdagina mumkin.

4. Sovg'alar:

4.1. Aksiya bo'yicha quyidagi SAMSUNG tovar belgisi ostidagi mahsulot Sovg'a hisoblanadi ("Sovg'a"):

Samsung Mini LED TV (UE43M70HAUXUZ) – 1 dona.

Sovg'alarning umumiy soni – 1 (bir) dona.

4.2. Sovg'alar soni cheklangan. Tashkilotchi Sovg'alar sonini mustaqil ravishda belgilash va o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

- 4.3. Sovg'aning rangi Ombordagi yoki Sovg'ani topshirish nuqtasidagi mavjudlikka bog'liq. Shuningdek, Sovg'aning rangi Aksiya saytida ko'rsatilgan tasvirdan farq qilishi mumkin.
- 4.4. Aksiya doirasida topshirilgan Sovg'aga ushbu turdagi mahsulotlar uchun belgilangan standart kafolat tatbiq etiladi.
- 4.5. Ishtirokchi quyidagi hollarda Sovg'ani olish huquqidan mahrum bo'ladi:
- 4.5.1. Aksiya shartlaridan birortasini buzgan taqdirda;
- 4.5.2. Ishtirokchi bilan bog'lanish uchun noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlar taqdim etilganda;
- 4.5.3. Firibgarlik yoki boshqa noqonuniy harakatlarga urinish aniqlanganda;
- 4.5.4. Ro'yxatdan o'tish ma'lumotlari uchinchi shaxslarga berilganda;
- 4.5.5. Ushbu Qoidalarga zid ravishda zarur ma'lumotlar yoki hujjatlarni taqdim etishdan va/yoki foto/video suratga olishdan bosh tortilganda.
- 4.6. Hech qanday holatda Tashkilotchi Sovg'ani pul ekvivalenti bilan almashtirmaydi hamda boshqa mahsulot bilan almashtirishni taqdim etmaydi.
- 4.7. Sovg'ani olish bilan bog'liq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar Tashkilotchi tomonidan mustaqil ravishda va o'z mablag'lari hisobidan to'lanadi.
- 4.8. Agar biror shaxs Sovg'a qiymatini, soliqlarni yoki boshqa to'lovlarni to'lashni talab qilsa, bunday to'lovlarni amalga oshirmang va darhol Tashkilotchi bilan bog'laning.
- 4.9. 2026 yil 6 avgustgacha G'olib tomonidan olinmagan Sovg'alar talab qilinmagan deb hisoblanadi. Bunday Sovg'alar saqlanmaydi va Tashkilotchi tomonidan o'z xohishiga ko'ra tasarruf etiladi. Sovg'a G'olibga 2026 yil 6 iyuldan 2026 yil 6 avgustgacha bo'lgan davrda topshiriladi.

5. G'olibni aniqlash va Sovg'ani topshirish tartibi

- 5.1. Ushbu Qoidalarga muvofiq, barcha shartlarni bajargan Ishtirokchi Sovg'a yutuqlari o'yinida qatnashish huquqiga ega bo'ladi.
- 5.2. G'olib Aksiyada qatnashish shartlarini to'liq bajargan Ishtirokchilar orasidan tasodifiy sonlar generatori yordamida aniqlanadi.
- 5.3. Tasodifiy sonlar generatori tomonidan shakllantirilgan son Tashkilotchi tomonidan tuzilgan Ishtirokchilar ro'yxatidagi tartib raqamiga moslashtiriladi.
- 5.4. Ishtirokchilar ro'yxati Aksiya shartlarini bajargan barcha Ishtirokchilar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va faqat G'olibni aniqlash maqsadida foydalaniladi.
- 5.5. G'olib Instagram ijtimoiy tarmog'idagi @samsunguzbekistan rasmiy sahifasida o'tkaziladigan jonli efir davomida aniqlanadi. Jonli efir davomida G'olibning faqat familiyasi, ismi va sharifi e'lon qilinadi.
- 5.6. G'olib aniqlangandan so'ng, Ishtirokchi 2026 yil 6 avgustga qadar Samsung Uzbekistan'ning rasmiy ijtimoiy tarmoq sahifalaridan biri orqali mustaqil ravishda Tashkilotchi bilan bog'lanishi shart.
- 5.7. Agar G'olib aloqaga chiqmasa yoki o'z shaxsini tasdiqlamasa, uning natijalari bekor qilinadi va u Sovg'ani olish huquqidan mahrum bo'ladi.
- 5.8. 5.7-bandda nazarda tutilgan holatda Tashkilotchi yangi G'olibni tasodifiy sonlar generatori orqali qayta aniqlaydi. Ushbu jarayon haqiqiy G'olib aniqlanmaguncha davom ettiriladi.
- 5.9. Jonli efir orqali o'tkaziladigan qur'a tashlash marosimi 2026 yil 6 iyul kuni Toshkent vaqti bilan 18:30 dan 19:00 gacha

bo'lib o'tadi.

6. Sovg'ani olish uchun G'olib quyidagilarni bajarishi lozim:

- 6.1. Ushbu Qoidalarning 1.5-bandida ko'rsatilgan Sovg'ani topshirish nuqtasiga shaxsan va o'z mablag'lari hisobidan kelishi;
- 6.2. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini yoki yashash guvohnomasini (rezident bo'lmagan shaxslar uchun) taqdim etishi;
- 6.3. Sovg'ani qabul qilish-topshirish dalolatnomasini to'ldirishi va imzolashi;
- 6.4. JShSHIR (PINFL) raqamini taqdim etishi;
- 6.5. Zarurat bo'lganda, Sovg'a bilan birga foto va video tasvirga tushishga rozilik berishi;
- 6.6. Zarurat bo'lganda, Aksiya natijalari 2026 yil 7 iyuldan kechiktirmay Tashkilotchining saytida va/yoki ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilinishi mumkin;
- 6.7. Sovg'ani faqat ushbu Qoidalarning 1.5-bandida ko'rsatilgan manzilda olishi mumkin;
- 6.8. Sovg'alar faqat Aksiya shartlariga to'liq rioya qilingan taqdirdagina topshiriladi.

7. Aksiya Ishtirokchisining huquq va majburiyatlari

7.1. Ishtirokchining huquqlari: ushbu Qoidalar bilan tanishish;

ushbu Qoidalarga muvofiq Aksiyada ishtirok etish;

Aksiyani o'tkazish muddatlari va shartlari haqida Aksiya saytida hamda Tashkilotchining rasmiy axborot resurslarida ma'lumot olish; ushbu Qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida ma'lumot olish;

kiritilgan o'zgartirishlarga rozi bo'lmagan taqdirda, Aksiyadagi ishtirokini to'xtatish orqali ulardan voz kechish;

Aksiya Tashkilotchisi haqida ma'lumot olish;

ushbu Qoidalarga muvofiq Sovg'ani olishni talab qilish.

7.2. Ishtirokchining majburiyatlari: ushbu Qoidalarga rioya qilish hamda Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha harakatlarni belgilangan muddatlarda bajarish;

internet, telefon aloqasi va boshqa xarajatlarni mustaqil ravishda qoplash;

ushbu Qoidalar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

8. Aksiya Tashkilotchisining huquq va majburiyatlari

8.1. Tashkilotchining huquqlari:

Aksiya davomida ushbu Qoidalarga bir tomonlama tartibda o'zgartirish kiritish yoki Aksiyani muddatidan oldin to'xtatish, bu haqda Aksiya saytida tegishli e'lon joylashtirish orqali Ishtirokchilarni xabardor qilish;

ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda Ishtirokchilardan zarur ma'lumotlar va hujjatlarni, shuningdek davlat organlariga taqdim etish uchun qo'shimcha hujjatlarni talab qilish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Qoidalarga muvofiq barcha huquqlardan foydalanish;

ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarni bajarmagan Ishtirokchiga Sovg'ani topshirishni rad etish;

Ishtirokchi tomonidan ushbu Qoidalar buzilganligi aniqlangan taqdirda Sovg'ani topshirishni rad etish;

Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini marketing va tadqiqot maqsadlarida 1 (bir) yil davomida qayta ishlash.

9. Boshqa shartlar

- 9.1. Aksiyada ishtirok etayotgan barcha Ishtirokchilar ushbu Qoidalarga rozilik bildiradilar va ularga rioya qilish majburiyatini oladilar. Quyidagi hollarda Ishtirokchi Sovg'ani olish huquqidan mahrum bo'ladi: ushbu Qoidalarni buzgan bo'lsa; Sovg'ani olish maqsadida firibgarlik va/yoki aldov harakatlarini sodir etgan bo'lsa; noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa; Tashkilotchi Ishtirokchi bilan u ko'rsatgan aloqa ma'lumotlari orqali 30 kun davomida bog'lana olmasa.
- 9.2. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi ushbu Qoidalarga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi. Qoidalarga to'liq yoki qisman rioya etishni rad etish Aksiyada ishtirok etishni rad etish deb hisoblanadi.
- 9.3. Aksiyani o'tkazish jarayonida Ishtirokchidan uning shaxsini aniqlash va ro'yxatdan o'tgan shaxs bilan bir xil ekanligini tasdiqlash maqsadida shaxsni tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatish va uning nusxasini taqdim etish talab qilinishi mumkin.
- 9.4. Mazkur Aksiya tanlov, lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa turdagi qimor o'yini hisoblanmaydi.
- 9.5. Ishtirokchiga Tashkilotchi yoki Hamkor tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar sifati bo'yicha fikr-mulohaza olish maqsadida Sifat nazorati bo'limi tomonidan qo'ng'iroq qilinishi mumkin. Ishtirokchi o'z fikrini bildirishni rad etish huquqiga ega.
- 9.6. Ommaviy ofertaning o'zbek va rus tilidagi talqinlari o'rtasida tafovut yuzaga kelgan taqdirda, rus tilidagi matn ustuvor kuchga ega hisoblanadi.

Aksiya bo'yicha barcha savollar yuzasidan Tashkilotchining aloqa ma'lumotlariga murojaat qilishingiz mumkin.

Tashkilotchining Call-markazi aloqa ma'lumotlari:

1336 – yagona qo'llab-quvvatlash xizmati.